SAMARQAND VILOYATI PASTDARG‘OM TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 14-aprel | 109-7-101-Q/25 | Pastdarg‘om tumani hokimligi

Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 7-apreldagi 100-7-0-Q/25-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 103-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi qarori to‘g‘risida

Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy faolligini oshirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida;

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 7-apreldagi 100-7-0-Q/25-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 103-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan 2025-yilda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi (Q.Siddiqov):

muntazam ravishda hududlarga chiqib, tadbirkor xotin-qizlarning muammolarini o‘rganish va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini;

tadbirkor ayollarning ilg‘or tajribalarini boshqa hududlarda ommalashtirishga ko‘maklashishni;

avval tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlab, ularning muammolarini hal qilish va biznes g‘oyalarini amalga oshirishga ko‘maklashishni;

tizimli muammolarni hal qilish yuzasidan tuman hokimligiga takliflar kiritib borilishini ta’minlasin.

4. Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi (Q.Siddiqov), tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi, tuman hokimligi bilan birgalikda:

“Biznesga ilk qadam” yo‘nalishida biznes ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan tashabbuskor xotin-qizlarni aniqlash va ularni tadbirkorlik asoslariga o‘qitish ishlarini tashkil qilsin;

“Biznesni yuksaltirish” yo‘nalishida “Chempion tadbirkorlar” dasturi doirasida eng faol ayol tadbirkorlar bilan manzilli ishlab, ularning yillik aylanmasini kamida 100 milliard so‘mgacha olib chiqishga ko‘maklashsin.

5. Tuman tijorat banklari “Biznesni yo‘lga qo‘yish” yo‘nalishida o‘zini-o‘zi band qilgan xotin-qizlarga o‘rnatilgan tartibda kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko‘maklashsin.

6. Tuman hokimi o‘rinbosari (N.Qorayeva) ilovada belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosi belgilangan muddatda va to‘liq bajarilishini ta’minlash bo‘yicha ishlarni tashkil etsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Pardayev) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Raxmanov**

Pastdarg‘om tumani hokimining
2025-yil 14-apreldagi
109-7-101-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Pastdarg‘om tumanida 2025-yilda aholini, shu jumladan, xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan ta’minlashning MAQSADLI KO‘RSATKIChLARI

T/ r	Hudud nomi/jami bandligi ta’minlanadiganlar soni		*shundan xotin-qizlar*	Shu jumladan sohalar kesimida:							
				Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi		Tijorat banklari		O‘zbekiston fermerlari kengashi tuman bo‘limi		Qurilish va uy- joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	
				jami	*shundan xotin-sizlar*	*jami*	*shundan xotin-qizlar*	*jami*	*shundan xotin-qizlar*	*jami*	*shundan xotin-qizlar*
1.	Pastdarg‘om tumani	32 037	12724	2387	549	20 530	7 390	8462	4739	658	46